

“OMONYOR” FOLKLOR-ETNOGRAFIK XALQ ANSAMBLI REPERTUARIDAGI “YOR-YORLAR”

Mirzayeva Shahribonu Komiljon qizi

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti

Farg‘ona mintaqaviy filiali magistranti

e-mail: shaxribonumirzayeva323@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek folklor-etnografiyasining musiqiy janrlaridan biri, nikoh to‘ylarining ikkinchi bosqichi – “qiz uzatish kechasi”da ijro etiladigan “Yor-yor” qo‘shiqlari haqida so‘z boradi. Ushbu maqolada “Omonyor” folklor-etnografik xalq ansambli repertuaridagi “yor-yor”larning turlari, ijro usullari tahlil ostiga olingan.

Kalit so‘zlar: folklor, musiqa, lapar, yor-yorlar, nikoh to‘yi, “omonyor” xalq ansambli, R.Mazohidova ijodi, an‘ana, qadriyatlar, qofiya, o‘lanlar, ustoz-shogird an‘anasi.

Kirish

“Yor-yor” marosim qo‘shiqlarining o‘zbek folklorida tutgan o‘rnini “Omonyor” folklor-etnografik xalq ansambli repertuari asarlari misolida tadqiq etish, nafaqat folklorshunoslikda, balki navqiron avlod vakillarini milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning ushbu nodir javohirlarini ustoz-shogirdlik an‘anasi doirasida o‘rganish, tadqiq etish va kelgusi avlodga yetkazish har bir o‘zbek farzandining muqaddas burchi bo‘lmog‘i darkor. Folklor yo‘nalishida ustoz-shogird an‘anasining davomiyligini saqlashdan ko‘zlangan maqsad, ushbu jarayon orqali xalq durdonalarini saqlash, umriga umr qo‘shish va yosh avlodning ma‘naviy-estetik didini shakllantirishga erishishdir. San‘at ta‘limida ustoz-shogird an‘anasi orqali yetuk kadrlarni tayyorlash, milliy san‘atimizni dunyo xalqlariga ko‘z-ko‘z qilish, ajdodlarga munosib voris tayyorlash, jamiyatda ustoz va ustozlik martabasini yuqori ko‘tarish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Dono xalqimiz bejiz “Ustoz ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘alar”, demagan. Bugun ustoz-shogird an‘anasiga yangicha metodlar yo‘lidan borib, masalaga kreativ-optimal jihatdan yondashmoq lozim. Jumladan, yaqin o‘tmishda ijod qilib o‘tgan xalq ijodkorlari repertuariga oid folklor asarlarini yangi avlodga o‘rgatish, ijodiy merosimizga bo‘lgan munosabat, hurmat va mahoratini oshirish, shu orqali ijodiy tafakkurini boyitishdir.

Biz tadqiqotimiz obyekti qilib, XX asr o'zbek folklor ijrochi-namoyondasi qo'qonlik O'zbekiston xalq artisti Rahima Mazohidova (1930-2014) ijodiy faoliyatini tanladik. R.Mazohidova o'z faoliyatini M.Qo'ldoshev rahbarligidagi badiiy havaskorlik to'garagida boshlagan. Keyinchalik, Qo'qon musiqali drama teatriida ishlagan. Shuningdek, Qo'qondagi "Omon yor" ayollar folklor ansambli tashkilotchisi va badiiy rahbari bo'lgan. U xalq sayillarida, to'y-tomoshalarda o'zining jo'shqin va yoqimli ovozi bilan xizmat qilib, folklor va milliy qo'shiqchilik san'atini tiklash va saqlashga katta hissa qo'shgan hofiza edi. R.Mazohidova doira chalib, to'y marosim qo'shilaridan "Yor-yor", "Kelin salom"larni ijro qilib, xalqimiz ko'nglidan joy olgan. Bundan tashqari xalq sevgan qo'shiqlardan "Deydi-yo", "Bug'macha bilagim", "Omon yor", "Yalliyalli", "Qari navo" kabi lapar va yallalarni maromiga yetkazib ijro qilgan.

Zokirjon Komiljonov, Nabijon Hamidov, Odiljon Jamolov, Jakbarali Mamadaliyev, Husnida Aliyeva, Dilbar Komiljonova kabi ko'plab san'atkorlar Rahima Mazohidovani o'zining ustozlari deb biladilar. Shogirdlar R.Mazohidova ijro etgan barcha yalla, lapar, o'lan, yor-yorlarni aynan ustozning o'zidan eshitib o'rgangan. R.Mazohidova ijro qilgan yor-yorlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, bugungi kun ijrochilari tomonidan ba'zi o'zgartirishlar kiritilib, to'y marosimlarida aytilmoqda.

Asosiy natija va tahlillar

O'zbek nikoh to'ylarida biz ijro qilib kelayotgan "Yor-yor"lar folklorning musiqiy janri hisoblanadi. Uning paydo bo'lishi, janr tabiati va atamasi haqida o'zbek folklorshunosligida ko'pgina fikrlar bayon etilganligiga guvoh bo'lamiz. "Yor-yor"lar nikoh to'ylarining ikkinchi bosqichi – qiz uzatish kechasi aytiladigan qo'shiqlardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, "Yor-yor"lar nafaqat o'zbeklarda, balki tojik, uyg'ur kabi turkiy xalqlar orasida ham keng tarqalgan. "Yor-yor" ayrim joylarda kelinni olib borayotgan ayollar tomonidan qiz otasining hovlisidan chiqqandan boshlab kuyovni uyiga kirgunga qadar aytilsa, ayrim joylarda "yor-yor"ga kuyov tomon ham qo'shilib, tarafma-taraf bo'lib aytiladilar.

"Yor-yor" mavzusi nixoyatda keng bo'lib, ularda kelin va kuyovni ta'riflash, ularning axil yashashi va bola-chaqali bo'lishi, shirin turmush qurishlariga undash, turmushda bo'ladigan achchiq-chuchularga sabr-qanoat qilish kabi ohanglar bilan bir qatorda qizning ota-ona bag'ridan chiqib, sinalmagan xonadonga borishi, boyluk evaziga sotilishi va uning xuquqsizligidan nolish kabi ohanglar va shu bilan birga, kelin bo'lishdek baxtga muyassar bo'lgan qizga dugonalarining va boshqalarning orzu-havasmandliklari ham bayon etiladi. Quyidagi "yor-yor"da ana shu holni kuzatishimiz mumkin:

*Qat-qatgina qatlamalar qatlanadi, yor-yor,
Qizni olib yangalari otlanadi, yor-yor.
Qizni olib yangalari tura tursin, yor-yor,
Oq sut bergan onalari rozi bo'lsin, yor-yor.*

Yor-yor orasidagi bu yengil, beg'araz hazil (yumor)ning aralashuvi tug'ilib o'sgan joyi, ota-ona, dugonalaridan ajralib, yangi, notanish xonadon sharoitiga kelayotganini o'ylab, yig'layotgan kelinchakni yupatish, kuldirib ko'nglini ko'tarish maqsadlari ko'zda tutiladi. Bu yor-yorni bugun ham qiz uzatish marosimida ijro etilayotganiga guvoh bo'lyapmiz.

*Yig'loma, qiz, yig'loma-yo,
To'y saniki, yor hay yoray to'y saniki.
Ostonasi tillodan-o ho uy saniki
Yor hay yoray uy saniki.
Ko'rpachasi shoxidan-o to'r saniki,
yor hay yoray to'r saniki.
Mo'ylablari qilichdek-o ho, yor saniki
Yor hay yoray yor seniki.*

Rahima aya bir nechta ayollar bilan doira jo'rligida ijro etgan qo'shiqlarini tasmalarda muhrlab qoldirgan. Bu yor-yorni Rahima aya o'z shevasida kuylab, takrorlanmas go'zal ijro sifatida yozib qoldirgan ekan. Ular ijro etgan yor-yorni to'liq matni quyida keltiriladi.

*Daryolarni ul yuzida uyloringiz,
Ha yor-yore, uyloringiz.
Oqarishibon ko'rinodi bo'ylaringiz,
Ha yor-yore, bo'yloringiz.
Ipaymidi yo egingizda kiygoningiz,
Ha yor-yore, kiygoningiz.
Bizlardanamo ortiqmidi yo sevgoningiz,
Ha yor-yore, sevgoningiz.*

*Doka ko'ylago yengigayo tut qoqaylik,
Ha yor-yore, tut qoqaylik.
Kelin kelganda xovligayo o't yoqaylik,
Ha yor-yore, o't yoqaylik.
Osmondagiyo yulduzniyo sakkiz denglar,
Ha yor-yore, sakkiz denglar.*

- *Sakkiz qizniyo sardoriyo kelin denglar,*
- *Ha yor-yore, kelin denglar.*
- *Sakkiz qizningo sardori-yo biz bo'lamiz*
- *Ha yor-yore, biz bo'lamiz.*
- *Bog'laridayo ochilgano gul bo'lamiz*
- *Ha yor-yore, gul bo'lamiz.*

Yor-yorlar umumxalq qo'shig'i bo'lishidan tashqari, alohida malakali mutaxassis, so'zga chechan yor-yorchilar tomonidan kuyov–kelin tarafkashlari, tortishuv tariqasida ham aytadilar. Bu tarafkashliklardan asosan kuyov-kelinga madhiyalar o'qilib, ularning yaxshi fazilatlarini, xulqi, fe'l-atvori, xarakteri hamda ikki yoshning bir-biriga munosibligi mubolag'ali ravishda maqtaladi va ularga baxt saodat tilanadi.

Tahlilga tortilgan qo'shiq matnida qanday lisoniy birliklar ishtirok etganiga qarab tahlil jarayoni turlicha qurshov va qamrovga ega bo'ladi. Biz lisoniy badiiyat tahlili tamoyillariga asoslanib xalq “yor-yor”laridagi qochimlarning lingvopoetik tahlilini o'tkazdik. “O'rganib chiqqan yor-yor qo'shiqlarimizda istifoda etilgan *o'xshatishlar* yuzga bir nisbatda hisoblaganimizda: yor-yorlarda – 24, *metaforalar* – 16, *sifatlashlar* – 61 miqdorda qo'llanilganligi isbotlandi”.³⁹

- *Bog'imizniyo to'ridayo bir tup anjir,*
- *Ha yor-yore, bir tup anjir.*
- *Bir tup anjiro taylorida tillo zanjir,*
- *Ha yor-yore, tillo zanjir.*
- *Tillo zanjiro iplariyo uzilmasin,*
- *Ha yor-yore, uzilmasin.*
- *Kuyov kelino taqdiriyo buzilmasin,*
- *Hay yor-yore, buzilmasin.*

Ba'zan qiz tomonidagi yor-yorchilar kuyov tomonni, kuyov tomondagilar esa kelin tomonni ba'zi kamchiliklarini hajv qiladilar. Bu yengil hazil faqat kuyov-kelin orasida qolmay, tarafkashlik tusini ham oladi. Yor-yorning “kelin salom” qismida esa, kelinni (ot arava, avtobus, asrlar oshib esa so'nggi urfdagi qimmatbaho mashinada kuyovnikiga olib ketayotgan payt) yangalar kuyovning hamma qarindoshlariga, elu-yurtga kelinni salom qildirayotganda, yor-yorning hazil kayfiyati kuchayadi.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, bugungi yosh avlodning aksariyatini mana shu milliy qadriyatlarga, milliy urf-odatlariga e'tiborini

³⁹ O'zbek folklorshunosligi. O'zbek milliy ensiklopediyasi/Davlat milliy nashriyoti/Toshkent-2017. 450-bet

kuchaytirishimiz lozim. Ustoz Rahima Mazohidova kelajak avlodga xalq ijodiyotini sevish, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashda o'zlarining katta maktablarini qoldirganlar. Biz yoshlar bunga javoban milliyligimizni asragan holda, kelajak avlodga ustozlarimiz kabi qadriyatlarimizni asl holda, gard yuqtirmay yetib borishi uchun ustoz-shogird an'anasi tizimida izlanishimiz, ko'proq mehnat qilishimiz kerak bo'ladi. Shu bilan birga o'z tariximiz va qadriyatlarimiz boqiylikka yuz tutishida ko'makdosh bo'lishga hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yor-yor va o'lan janrlarining o'xshash va farqli jihatlari/talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali №10
2. Yor-yor qo'shiqlari va xalqona so'zning o'ziga xos ifodasi/ global talim va miliy metodika taraqqiyoti v an'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani/at:uzbekistan, tashkent-2021
3. San'at va madaniyat sohasining rivojlanish istiqbollari/iii sonli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi/qo'qon-2022
4. O'zbek folklorshunosligi/antologiya"o'zbekiston milliy ensiklopediyasi"/davlat ilmiy nashriyoti/toshkent-2017 yil.